

NAVOIY ALQAGAN MO‘G‘IL XONZODASI BAHODIR SULTON HOJI TARXONIY KIM BO‘LGAN?

Sherxon QORAYEV

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiyning “Soqiynoma” asarida tilga olingan mo‘g‘il xonzodasi Bahodir Sulton va uning shaxsi haqida so‘z boradi.

Tadqiqotimizdan ma’lum bo‘ladiki, Sulton Husayn Boyqaroning jiyani bo‘lgan mo‘g‘il xonzodasi Hirota kelib, tog‘asiga xizmat qilgan.

“Soqiynoma” asari ham Alisher Navoiy qadrlagan Bahodir Sultonga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Xon, qurultoy, bazmu jamshid, Katta O‘rda, Ahmadxon Hoji Tarxoniy.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассказывается о монгольском принци Бахадире Султане и его личности, упомянутом в «Сокиноме» Алишера Навои.

Из наших исследований известно, что монгольский принц, племянник султана Хусейна Бойкара, приехал в Герат и служил своему дяде.

«Сокинома» посвящена Бахадиру Султону, которого ценил Алишера Навои.

Ключевые слова: Хан, курултай, базму джамшид, Золотая Орда, Ахмад-хан Хаджи Тархани.

ABSTRACT

This scientific article talks about the Mongol prince Bahadir Sultan mentioned in Alisher Navoi's «Sokinoma» and his personality.

From our research it is known that the Mongol prince who was the nephew of Sultan Husayn Boykara came to Herat and served his uncle.

The work «Sokinoma» is also dedicated to Bahadir Sultan whom Alisher Navoi appreciated.

Keywords: Khan, kurultay, bazmu jamshid, Golden Horde, Ahmad Khan Haji Tarkhani.

Kirish. Jahan adabiyotshunosligida muayyan millat ma'naviy merosiga, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan adabiy jarayonlarni o'rganish adabiyotshunoslikning adabiy-estetik kategoriyasi sifatida o'ziga xos ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Binobarin, adabiy jarayonlar, badiiy asarlar tahlili, turli metodlar asosida matnning talqin tamoyillarini o'rganish va ilmiy-estetik tafakkurni shakllantirgan asoslarni belgilash adabiyotshunoslik rivoji va takomiliga zamin yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonlar, adabiy muhitlar, saroy adabiyoti vakillari merosini tadqiq etish yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar fan tarixi asosida uning nazariyasi taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri poydevori barpo etilayotgan bir paytda dunyo adabiyotshunosligida yuzaga kelgan ilg'or metodologik usullar asosida milliy adabiyotimiz mezonlarining yangicha tamoyillarini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixida saroy adabiyoti va adabiy majlislar, she'riy asarlar tarixini tadqiq etish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitish, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganilmagan saroy adabiyoti namunalari hamda hukmdorlar huzuridagi adabiy majlislar tarixini tadqiq etish, adabiyotni umumadabiy jarayon bilan bog'lab, muayyan tarixiy aspektida xolis o'rganish ustuvor vazifalardan biri.

Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarda o'zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgani hech kimga sir emas, jumladan, hukmdor-shoirlar va saroy adabiyoti vakillari ijodi keng ko'lamda o'rganildi, ijodkorlarning devonlari nashr etildi. Albatta, o'zbek mumtoz adabiyotining katta qismi saroyda yaratilganidan hamda adabiy yig'inlar milliy adabiyotni rivojlanishida muhim omil bo'lganligidan kelib chiqsak, saroy adabiyoti va adabiy bazmlarni chuqur va har tomonlama o'rganish payti keldi. Binobarin o'zbek mumtoz she'riyat tarixi, adabiy yig'inlar hamda mumtoz adabiyot vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda

ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, turkiy tildagi “Soqiynoma” bevosita Alisher Navoiy ijodida janr sifatida shakllandi va rivoj topdi. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida bitta Soqiynoma mavjud bo‘lib, u Chordevonning “Favoyid ul-kibar”i tarkibiga kiritilgan. Soqiya murojaat tarzida yozilgan, Masnaviy-Soqiynoma jami’ 32 band, 459 baytdan iborat. “*Soqiynomaning mohiyatiga kelsak, bu she’r olamdan o’tgan yaqinlar xotirasiga bag’ishlangan. Shu munosabat bilan olamning besabotligidan va olam ahlidan shikoyat, shuningdek, befoyda g’amu anduhni unutib, vaqt ni g’animat tutish g’oyasi ham yuzaga chiqadi*”.¹ Biroq, o‘z Soqiynomasida shoirlar sultonni marhum do‘stlaridan tashqari, hayot bo‘lgan qadrdonlari va yaqinlarini ham eslab o‘tgan. “Soqiynoma”ning dastlabki qismlarida temuriy shahzodalar, ya’ni Umarshayx ibn Amir Temur avlodidan bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaro hamda uning o‘g‘illari, jiyanlari, nabiralari yodga olinadi, ta’riflanadi va ularga pandu nasihatlar qilinadi. Akademik Aziz Qayumov ta’biri bilan aytganda, “*Soqiynomada Navoiyning dunyoqarashi, hayotining ayrim lavhalari, Navoiy mansub muhit, davri to‘g’risida ayrim ma’lumotlar bor. Bu ma’lumotlar Navoiyning o‘zi tomonidan aytilmoqda bo‘lganidan ayniqsa qimmatli va diqqatga sazovordir*”.² Lekin, “Soqiynoma”da shoir ayrim shahzodalar nomini qayd etadi-yu, ammo ayrim tarixiy shaxslarning nomini keltirmaydi. “Soqiynoma”ning XVIII-qismida shoirlar sultonni Sulton Husayn Boyqaroga farzanddek aziz bir mo‘g‘il xonini madh etadi va unga nasihatlar qiladi. Ammo, negadir uning ismini yozmaydi. Balki bu shaxs Navoiy zamonida taniqli bo‘lganidanmi yoki hamma xon deganda uni taniganidanmi mutafakkir shoir uning nomini qayd etishga ehtiyoj sezmagandir.

Navoiy o‘yla ulus xoniga erur oshiq,

Ki turki qullari, jo‘jidir oning chig‘atoy.³

Ushbu baytdan tashqari, “Soqiynoma”da ham Sulton Husayn Boyqaro huzuriga - Hirotgaga mehmon bo‘lib kelgan qarindosh xon (xonzoda) va uning bazmi haqida so‘z borgan:

Soqiyo, may tutu qo‘yg‘il so‘zni,

Xon qurultoyiga yetkur o‘zni...

To‘ra birla bosh urub tut xong‘a,

Sarqutin ber meni besomong‘a.

¹ Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. T.: O‘zbekiston, 2014.-B.170-178.

² Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B.60.

³ Alisher Navoiy. Favovid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy. Asarlar. O‘BT. To‘rtinchi tom. T.: Badiiy adabiyot, 1966.-B.341.

*O‘zni ul sarqut ila mast qilay,
So‘zni xon bazmida payvast qilay.

Kim ayo to‘rt ulusqa voris,
Faxr etib zotinga ruhi Yofis.

Aslu gavhar bila xonlar xoni,
Javhari zot ila jonlar joni.

Shohg‘a mehmonu azizu dilband,
Ham qarindosh, yana ham farzand.⁴*

Xo‘sh, Sulton Husayn Boyqaroga “mehmonu aziz, dilbandi”dek, “qarindoshu, farzandi”dek bo‘lgan xon kim? Navoiy “Soqiyonna”da qaysi mo‘g‘il xonini nazarda tutmoqda? Nahotki, temuriy sulton Husayn Boyqaroning mo‘g‘ul xonlaridan qarindoshi bo‘lgan bo‘lsa? Keling, dastlab shu savollarga javob izlasak. Birinchidan, tarixchi Bo‘riboy Ahmedovning yozishicha, “Temuriylar o‘rtasida oliv hokimiyatga talabgor bo‘lganlardan biri Sulton Husayn Boyqaro 1460 yilda Sulton Abusaid (1451-1469) qo‘shinining tazyiqi ostida Astraboddan qochdi. O‘shanda u Amudaryoni kechib o‘tib, uning o‘ng qirg‘og‘ida mustahkamlanib oldi. So‘ng shu yerda turib Vazir (Xorazm)ga – Mustafaxon huzuriga amir Abdurahmon Jondorni elchi qilib yubordi va o‘zbek xoniga Abusaid Mirzoga qarshi ittifoq tuzishni taklif etdi. Ammo Abdurahmon Jondor Vazirdan qaytib kelmasidanoq, Sulton Husayn Mustafaxonning inisi Pir Budoqxonni o‘z tomoniga og‘dirib olishga muvaffaq bo‘ldi. Xondamirning so‘zlariga qaraganda, o‘sha paytda og‘a-inilar, ya’ni Mustafaxon bilan Pir Budoq o‘rtasida qattiq kurash borardi, chunki Pir Budoq sulton hokimiyatni og‘asidan tortib olishga zo‘r berib urinayotgan edi. Sulton Husayn Pir Budoq sultonni o‘ziga yana ham yaqinlashtirib olish maqsadida unga o‘z singlisi Bade‘uljamolbegimni xotinlikka berdi. Sulton Husayn shu tariqa Pir Budoq sulton bilan ittifoq tuzib oldi”.⁵ Pir Budoq vafotidan so‘ng esa temuriy malikaga Oltin O‘rda xoni bo‘lgan Ahmadxon⁶ uylanadi. Bobur “Boburnoma”da mo‘g‘il xonini ortiqcha izohlarsiz “Ahmadxon” deb ta’kidlagan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Sulton Husayn Boyqaroning kuyovi Katta O‘rda xoni Ahmadxon o‘z davrida ma’lum va mashhur hukmdor bo‘lgan: “Ahmadxon – Shayboniyalar sulolasidan Ashtarxon (Hoji Tarxon, Hozirgi Astraxan)da hukmronlik qilgan xon. Sulton Husaynning singlisi Badikabegim (Bade‘uljamolbegim)ga uylangan. O‘g‘illari keyinchalik

⁴ Alisher Navoiy. Favoid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniyy. Asarlar. O‘BT. To‘rtinchi tom. T.: Badiiy adabiyot, 1966.-B.418-419.

⁵ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O‘qituvchi, 1994.-B.168-169.

⁶ Ko‘rsatilgan asar.-B.168.

Hirotga kelib, Sulton Husaynga xizmat qilgan.⁷ Ana shu o‘g‘illardan birini Navoiy “Xon” deb ulug‘lagan. Xonzodalarga “Hoji Tarxoniy” nisbasi ham qo‘shib yozilgan.⁸ Ikkinchidan, Alisher Navoiyning “Munshoat”i maktublaridan birida ham Hirotga kelgan xon haqida so‘z borgan: “Yana maktub xususida shunday buyurdilarke, “Garchi yosh jihatdan ul farzand (*Badiuzzamon*) xondan kattaroqdir, ammo u sultonlik martabasidan bu yerga kelmayapti, balki xonlik taxtidan hodisa sodir bo‘lgani uchun bu yerga tushgandir, bu muddatda bizga bunday aziz mehmon kelgan emas edi”.⁹ Shoirlar sultoni bu maktub bilan Hirotga kelgan yuksak martabali – aziz mehmon mo‘g‘il xonzodasiga yetarli hurmat ehtirom ko‘rsatishni tavsiya etmoqda. Bu xonzoda ham “Soqiynoma”da tilga olingan “Xon”ning aynan o‘zidir. Uchinchidan, G‘iyosiddin Xondamir “Habib us-siyar” asarida bu maktubga va Hirotga kelgan xonzoda shaxsiga aniqlik kiritib, shunday yozgan: “Mansur hoqon (*Husayn Boyqaro*)ning singlisi Bade’uljamolbegim (*Badikabegim*) ul hazrat Jurjon viloyatini Sulton Abusaid Mirzoga qoldirib, Adoq o‘lkasida quyosh yog‘duli bayroqni hilpiratgan yili (*Dashti Qipchoq hukmdorlaridan*) Pir Budoq sultonning nikohiga kirgan edi. Pir Budoq sulton vafot etgach, Dashti Qipchoq xoqon (*Oltin O‘rda xonlari*)larining barchasidan ulug‘lik va shavkatda ustun turuvchi (*Katta O‘rda xoni*) Ahmadxon saltanat tojining ul durini o‘z nikohiga kiritdi va Bade’uljamolbegim mazkur Ahmadxon dan ikki o‘g‘il va bir qiz tug‘di. So‘ng ul oliv martabali xon oxirat safari ko‘rpato ‘shagini orqalab, bu o‘tkinchi dunyo bilan xayrlashdi.

Mahdi ulyo akasini ko‘rish uchun (1485 yilda) Xuroson tomon yo‘nalib, to‘ng‘ich o‘g‘li Sulton Mahmudxонни ota-bobosi sultanati poytaxtida qoldirdi. Kichkina o‘g‘li Bahodir Sulton esa singlisi Xonzodaxonim (Shu yili Muzaffar Mirzo nikohiga kiradi, keyin Shayboniyxonga turmushga chiqadi) bilan birga onasiga ergashdilar.

*Ul iffat shiorli zamona Bilqisining oltin tusli muhofasi Hirot hududiga yetishgach, mansur xoqon xalifalik pardasi ortida o‘tirgan pokiza afifalar va shahzodalar, amiru davlat ustunlarini kutib olish uchun jo‘natdi. Ular Bade’uljamolbegimni katta hurmat-ehtirom bilan davlat poytaxtiga olib kelib, niyoq va nisor sochqisi shartini bajardilar. Begim ham akasining diydori bilan ko‘zini ravshan qilib, loyiq tortiqlar tortdi. Mansur xoqon aziz singlisi va uning bolalariga mehribonlik va g‘amxo‘rlik nazari bilan boqib, in‘om va ehson shartlarini bajardi.*¹⁰ Demak, mazkur ma’lumotlarga asoslansak, Navoiy “Soqiynoma”da xon deganda, Husayn Boyqaroning jiyani – singlisi Bade’uljamolbegimning o‘g‘li Sulton Bahodirxonni nazarda tutgan.

Ko‘rki, sen kimsenu qaydin kelasen,

Qaysi mulk ichrasenu kim bila sen.

Hech shah topmadi bir xon sendek,

⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B.68.

⁸ Ko‘rsatilgan asar.-B.71.

⁹ Alisher Navoiy. Munshaot. T.: Ma’naviyat, 2001.-B.36.

¹⁰ G‘iyosiddin Ibn Humomiddin Xondamir. Hbib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O‘zbekiston, 2013.-B.782-785.

Bu ulus ko‘rmadi mehmon sendek.
Budur ummedki, shah davlatidin,
Ihtimomiyu biyik himmatidin.
Ulcha maqsudung erur, yetkaysen,
Komron mulkungga azm etkaysen.
Ota taxtiga topib istiqlol,
Qilg‘asen xasmlaringni pomol.
Lek mehmong‘a kerak o‘yla maosh,
Kim agar mulkiga azm aylasa fosh.
Mezbonlarg‘a malolat yetkay,
Xayr birla el ani yod etkay.
Shukrkim, behad erur yaxshilig‘ing,
Andin ortuq dog‘i yaxshi qilig‘ing.
Hojat ermas sanga bu yanglig‘ pand,
Kim sanga pand elidur hojatmand.
Ham bu yanglig‘ki shior aylabsen,
Xalqni xulqungga zor aylabsen.
Tengri qilsun sanga tavfiq rafiq,
Har qilur ishda rafiqing tavfiq.
Shahg‘a sensen chu rafiqi joni,

Bir-biringizga bo‘lung arzoni.¹¹

Binobarin, adabiyotshunos Maqsud Asadov ham tarixiy ma'lumotlarga kelib chiqib, yuqoridagi satrlarda Sulton Bahodirxon ko'zda tutilganini tasdiqlagan: “1485 yilda Sulton Husayn Boyqaroning singlisi Badakabegim (Bade’uljamolbegim)ga uylangan Dashti Qipchoq hukmdori, ya’ni Oltin O’rda xoni Ahmadxon Hoji Tarxoniy (Kichik Muhammad)ning kenja o‘g‘li Bahodir Sulton onasi va singlisi Xonzodabegim bilan Hirotga mehmon bo‘lib keladi. Husayn Boyqaro ularning sharafiga “Chingiziylar usulida” katta bir anjuman – qurultoy tashkil qiladi. Shohona ziyofat (adabiy majlis) berilib, qimiz va may tortiladi. Qadimi kuy – qo’shiqlar yangraydi. Alisher Navoiyning “Soqiynoma”si mana shu bazmi jamshid munosabati bilan yozilgan. Shunday bo‘lsa-da, soqiynomada qurultoyni ta’riflash bir vosita bo‘lib, davrning turli – tuman ijtimoiy, siyosiy, madaniy, axloqiy masalalari haqida ham mushohada yuritilgan. Asarda tasvirlangan tarixiy voqealarning turli sanalarga daxldorligiga qarab, uning ma'lum bir qismi 1485 yilda yozilgan bo‘lsa-da, asarni shoir umrining oxirgi yillarida yozib tugatgan, deb xulosa chiqarish ham mumkin”.¹²

Darhaqiqat, Maqsud Asadovning yozishicha, “Navoiy o‘zining go‘zal va favqullodda ta’sirli bu asari (“Soqiynoma”)ni olis Dashti Qipchoqdan tashrif buyurgan Husayn Boyqaroning jiyani, ya’ni Bahodir Sultonga bag‘ishlab yaratgan. Shu sababli, uning madhi keltirilgan XVIII bandda fors – tojik va arabcha so‘zlarga qaraganda, xon, qurultoy, to‘sto‘g‘on, qimiz, yirov, yoto‘g‘on, yir, to‘ra, sarqut kabi sof turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar ko‘proq ishlatilgan:

Soqiyo, may tutu qo‘yg‘il so‘zni,

Xon qurultoyig‘a yetkur o‘zni.

Sofu may jom aro dilkashdur,

To‘stug‘on ichra qimiz ham xushdur.

Ey yirov sen ham ishingni ko‘rguz,

Yotug‘on birla ulug‘ yirni tuz.

Unda mo‘g‘ul xalqi orasida keng tarqalgan urf – odatlar va marosimlar ham o‘z ifodasini topgan.¹³

Yoto‘g‘onchiyu yirov tuzgach un,

¹¹ Alisher Navoiy. Favoid ul-kibar. Xazoyin ul-maoni. Asarlar. O‘BT. To‘rtinchi tom. T.: Badiiy adabiyot, 1966.-B.418-419.

¹² Asadov M. Soqiynoma: tarix va poetika. T.: Tafakkur, 2020-B.155-156.

¹³ Asadov M. Soqiynoma: tarix va poetika. T.: Tafakkur, 2020-B.199.

Sen qadah olu to‘qquz qotla yukun.

Navoiyning quyidagi qit’alaridan birida (anjumanda) ham Sulton Husayn xon (Bahodir Sulton)ga “la’lgun ayog‘ (qadah) bergani” aytilgan:

Falak sochti xon boshig‘a siymi nob,

Bizing shoh ayog‘ig‘a la’li muzob.

Falak birla shoh qadru johi aro,

Tafovut nisoridin etgil hisob.¹⁴

Xulosa. Tog‘asi Sulton Husayn Boyqaro ardoqlagan mo‘g‘ul xonzodasi Sulton Bahodirxonga bag‘ishlangan ushbu satrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin: Birinchidan, Navoiy “yaxshi xulqli” va odobli, tarbiya ko‘rgan xonzoda bilan yaqin do‘stona, ustoz-shogirddek munosabatda bo‘lgan. Unga nasihatlar bergan, suhbatlashgan. Ikkinchidan, Sulton Bahodirxon Navoiy qatnashgan temuriylarning adabiy yig‘inlarida ishtirok etib turgan. O‘zi ham adabiyotni sevgan. Uchinchidan, xonzoda Navoiy ijodiga befarq bo‘lmagan. O‘z o‘rnida shoirlar sultonining she’rlarini ham yoddan bilgan, deyish mumkin. To‘rtinchidan, Sulton Husayn Boyqaro ham jiyanini o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rgan va qadrlagan. Aytish lozimki, uning xizmatidan ko‘ngli to‘lgan va yig‘inlarda maqtagan. Tog‘asiga sidqidildan xizmat qilsada, ammo u ota taxtidan ham umidini uzmagan. Biroq, bu paytda Ashtarxonda taxt uchun ayovsiz kurash borgan. Abduvohid Hayit “Ivan Vasilovich (chindan ham) kasbini o‘zgartiradi” nomli ilmiy maqolasida yozishicha, “*1480 yili Litva ulug‘ knyazi va Polsha qiroli Kazimir VI Oltin O‘rda xoni Ahmadxon bilan Moskvaga qarshi ittifoq tuzadi. Ayni paytda, Qrim xonligi Moskva bilan ittifoqdosh, ammo Oltin O‘rda bilan urush holatida edi. 1480 yilning kuzida Ugra daryosi bo‘yida Oltin O‘rda va Moskva qo‘sishlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangda Litva – Polsha harbiy yordam kuchlari yetib kelolmaydi. Sababi yo‘lda ular Qrim xonligi qo‘sishlari bilan to‘qnash keladi. Shunday qilib, Ugra jangida (Ahmadxon ustidan) qozonilgan g‘alabadin keyin Moskva uzil-kesil mustaqil bo‘ladi (<https://azon.uz/content/views>)*”. Ahmadxon 1485 yilda vafot etadi, uning taxti xonzodalar o‘rtasida talash bo‘ladi, keyinchalik xonlik hududi Moskva tomonidan egallanadi. Bizningcha, xonzoda Ivan Grozniy bosib olgan yurtiga qaytmasdan, tog‘asining xizmatida qolgan bo‘lishi ham mumkin. Uning keyingi taqdiri esa bizga noma’lum. Ammo bir narsa aniqki, xonzoda Sulton Bahodirxon Navoiy uchun nihoyatda aziz va qadrli insonlardan biri bo‘lgan.

Muxtasar qilib aytganda, xonzodaning ajoyibligi, oljanobligi, adabiyotsevarligi va insoniyligi shoirlar sultoni nazariga tushishiga hamda she’riy satrlar orqali abadiyatga muhrlanishiga sabab bo‘lgan.

¹⁴ Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Xazoyin ul-maoniy. TAT. O‘n jildlik. Ikkinci jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.684.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Alisher Navoiy. Favoid ul-kibar. Xazoyin ul-maoniy. Asarlar. O'BT. To'rtinchi tom. T.: Badiiy adabiyot, 1966.-B.341.
- 2.Alisher Navoiy. Munshaot. T.:Ma'naviyat, 2001.-B.36.
- 3.Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Xazoyin ul-maoniy. TAT. O'n jildlik. Ikkinchi jild. T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.684.
- 4.Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B.68.
- 5.G'iyyosiddin Ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O'zbekiston, 2013.-B.782-785.
- 6.Asadov M. Soqiynoma: tarix va poetika. T.: Tafakkur, 2020-B.155-156.
- 7.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994.-B.168-169.
- 8.Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar.T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B.53-61.